


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**



**O'RGANILAYOTGAN MAMLAKAT TARIXI**  
**(ARAB MAMLAKATLARI)**

**FANINING O'QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	20000	–	San'at va gumanitar soha
<b>Ta'lim sohasi:</b>	220000	–	Gumanitar fanlar
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	60230100	–	Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha)

Toshkent-2021

	<p>qo'llanma). – T.: TDSHU, 2015.</p> <p>3. Большаков О.Г. История Халифата. 4 жылд. Москва 1998-2005.</p> <p>4. Ланда Р.Г. История арабских стран. М.: Восточный университет, 2005. — 320 с.</p> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <p>5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016.</p> <p>6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017.</p> <p>7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston", 2017.</p> <p>8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.</p> <p>9. Фильштинский И.М. История арабов и халифата (750-1517 гг.) М. 2005</p> <p>10. Мюллер А. История ислама. От доисламской истории арабов до падения династии Аббасидов. Кн. 1-2. М.: АСТ, 2004. — 911 с.</p> <p>11. Беляев Е.А. Арабы, ислам и арабский халифат в раннее средневековье. М.: Наука, 2006. — 280 с.</p> <p>12. История Востока. 6 том. М.: Восточная литература, 2009. — 688 с.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <p>13. <a href="https://www.history.ru">https://www.history.ru</a></p> <p>14. <a href="https://turuz.com">https://turuz.com</a></p> <p>15. <a href="https://www.ttk.gov.tr">https://www.ttk.gov.tr</a></p> <p>16. <a href="https://www.academia.edu">https://www.academia.edu</a></p>
7.	<p>O'quv dasturi "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil "26" 08 dagi "1" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil "28" 08 dagi "1" - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b> Sh.Ikromov - TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasida o'qituvchisi</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b> I.M. Shamsiyeva - TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi D.J. Urakov – O'zMU "Jahon tarixi" kafedrasida mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM).</p>

4.	<p>Arab davlatlari tarixi bo'yicha adabiyot va manbalar bilan ishlash, Arab davlatlarining tarixiy rivojlanishining har bir bosqichidagi asosiy rivojlanish tendensiyalarini tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda turk siyosiy madaniyatining xususiyatlarini tushuntirish, mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy institutlarga islom omilining ta'sir o'tkazishi va uning darajasini tahlil qilish va aniqlash, Arab davlatlari tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yo'nalishlarini oqilona tahlil qilish, ko'rsatilgan atamalardan, shu jumladan ilmiy munozaralarda foydalanish, tarixiy va madaniy voqe'larni tahlil qilish, <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Arab davlatlari va boshqa mamlakatlarning tarixiy jarayonini tahlil qilish, mustaqil ishlash, Arab davlatlari tarixiga oid masalalar bo'yicha ma'lumot izlash, uning tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda batafsil tavsiflash, jahon tarixiy jarayoni kontekstida Arab davlatlarining tarixiy-huquqiy va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda, tarixiy rivojlanishning turli bosqichlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning tarixiy xilma-xilligini hisobga olgan holda siyosiy madaniyat va mentalitetning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida islom omili va uning turli xil ko'rinishlarini hisobga olgan holda tarixiy jarayonning asosiy yo'nalishlarini tushuntirish, Arab davlatlari tarixi bo'yicha ilmiy adabiyotlar va manbalardan, shuningdek ularda mavjud bo'lgan atamalardan foydalanish, Arab davlatlari tarixining asosiy parametrlari va tendensiyalarini yoritish va tahlil qilish, <i>malaikalariga ega bo'lishi kerak</i></li> </ul> <p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Z.M.Qodirov, N.A.Abdullayev, Sh.Ikromov. Arab davlatlari tarixi (o'quv qo'llanma). - T.: TDSHI, 2018.</li> <li>2. Z.M.Qodirov. Arab davlatlari tarixi (gadingi va o'rta asrlar) (o'quv</li> </ol>

<p>5. Misrda etnomadaniy jarayonlar</p> <p>6. Saudiya Arabistonidagi qabila urug' tizimi xususiyatlari</p> <p>7. Misrdagi milliy oszodlik harakatlari</p> <p>8. Misrda "Musulmon birodarlar" tashkilotining faoliyati</p> <p>9. Arab davlatlarida sotsializm g'oyalarning tarqalishi</p> <p>10. Liviya davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari</p> <p>11. Shimoliy Afrika arab davlatlarida demokratik jarayolar</p> <p>12. Shimoliy Afrika arab davlatlarida ko'ppartiyaviy tizimi</p> <p>13. Arab davlatlari Ligasi faoliyati</p> <p>14. Fors ko'rfazi arab davlatlari xamkorlik tashkiloti</p> <p>15. Fors ko'rfazi davlatlarining Eron bilan munosabatlari</p> <p>16. Arab bahorning arab davlatlaridagi ijtimoiy siyosiy oqibatlari</p> <p>17. Arab davlatlarida milliy o'zlik, qadriyatlari va zamonaviylik muammolari</p> <p>18. Birlashgan Arab Amirliklarida raqamli texnologiyalar</p> <p>19. Qatarning arab davlatlari bilan hamkorlik aloqlari: muammo va ziddiyatlar</p> <p>20. Arab davlatlarida ommaviy axbarot vositalari</p> <p>21. Arab davlatlarida Fan va ta'lim</p> <p>22. Arab davlatlarining sayyohlik imkoniyatlari</p>	<p><b>3.</b></p> <p><b>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar)</b></p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>O'rganilayotgan mamlakat tarixi (Arab davlatlari) fanining maqsad va vazifalari, arab xalqlari tarixining asosiy bosqichlari, Arab davlatlarining dunyo madaniyatiga qo'shgan hissasi mazmuni, insoniyat madaniyati tarixi kontekstida turkiy xalqlarning san'ati, madaniyati va urf-odatlari, Arab davlatlarining tarixiga oid asosiy manbalarning umumiy mazmuni, eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan Arab davlatlarining tarixiy rivojlanish tendensiyalari, Arab davlatlarining tarixining turli bosqichlarida uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillarning asosiy mazmuni, Arab davlatlari tarixan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari, arablarning siyosiy madaniyati xususiyatlari va ularning mentaliteti, Arab davlatlaridagi ijtimoiy va siyosiy institutlarning shakllanishi va faoliyatiga islomning ta'siri darajasi, Arab davlatlari tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yo'nalishlari, Arab davlatlari tarixi bilan bog'liq bo'lgan muhim atamalarining ma'nosi, Arab davlatlari tarixining muhim ijtimoiy-siyosiy voqe'liklarining tarixiy kelib chiqishi va konteksti hamda ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanish haqida <b>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</b>;</li> <li>talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganishi, internet ma'lumotlarini, Arab davlatlari tarixining asosiy bosqichlari va huquqiy mazmunini tahlil qilish, mustaqil ravishda</li> </ul>
--	---

Fan/modul kodi MT108	O'quv yili 2021-2022 2022-2023	Semestr 2,3	Kreditlar 4,4
Fan/modul turi Majburiy	Haftadagi dars soatlari 4,4		
Fanning nomi	Ta'lim tili O'zbek/rus	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
O'rganilayotgan mamlakat tarixi (Arab davlatlari)	120	120	240
1.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga O'rganilayotgan mamlakat tarixi (Arab davlatlari) fanining nazariy va amaliy asoslari, Arab davlatlari tarixini davrlashtirishning asosiy tamoyillari, Yaqin Sharq hududida davlatlar tashkil etilishidan boshlab muhim tarixiy davrni yoritishga oid bir qator masalalarni, Yaqin Sharq hududidagi etno-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, moddiy madaniyat xususiyatlarini o'rganish hamda ularda xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko'nikma va malaka hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – arab davlatlari tarixining kelib chiqishini aniqlash va arab etnosining paydo bo'lish bosqichlarini (miloddan avvalgi I ming yillik - X asr) kuzatish; mamlakat tarixining eng qadimgi davrlardan to hozirga qadar bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar, arab davlatlarining evolyutsion xususiyatlarini ochib berish; Arab davlatlarining xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlari ko'rib chiqish; talabalarda Arab davlatlari tarixiga yagona jarayon sifatida qarashlarini shakllantirish, etno-konfessiyaviy institutlarning, shuningdek, ularning etnik-madaniy xususiyatlarini chuqur bilish asosida xorijiy Osiyo, bu holda arab, diasporalarning tarixiy rivojlanishini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish, Arab respublikalari va monarxiyalarning tarixiy retrospektiv va zamonaviy Yevropa va Osiyodagi o'rni aniqlash kabi masalalarni ochib berish.</p>		
2.	<p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>I mavzu. Qadimgi Misr</b></p> <p>Qadimgi Misr tarixi, madaniyati, turmush tarzi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini qisqacha o'rganiladi va quyidagilarga e'tibor qaratiladi: Qadimgi Misr manbaxunosligi va tarixnavisligi. Qadimgi Misr davlatining paydo bo'lishi. Misr Qadimgi Podshohlik davrida (miloddan avvalgi 2800-2250 yillar). Misr O'rta Podshohlik davrida (miloddan avvalgi 2250 -1750 yillar). Misr Yangi Podshohlik davrida (miloddan avvalgi 1580 -1125 yillar). Qadimgi Misr madaniyati.</p>		

## 2 mavzu. Qadimgi Mesopotamiya

Qadimgi Mesopotamiya tarixi, madaniyati, turmush tarzi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini qisqacha o'rganiladi. Mavzu davomida quyidagilarga e'tibor qaratiladi: Qadimgi Mesopotamiya manbashunosligi va tarixnavisligi. Mesopotamiyada qadimgi davlatchilikning vujudga kelishi (shahar-davlatlar). Mesopotamiyaning eng qadimgi davlatlari. Shumer va Akkad. Sargon I va uning harbiy yurishlari. Qadimgi Bobil. Yangi Bobil. Ossuriyaning rivojlanish jarayonlari. Qadimgi Mesopotamiya madaniyati.

## 3 mavzu. Sharqiy O'rta yer dengizi mamlakatlari

Qadimgi Falastin. Falastinning qadimgi tarixida Isroil-Yahudiy qabilalarining o'rni. Qadimgi Falastin aholisi. Falastin madaniyati. Finikiya. Finikiya hududidagi qadimgi shahar-davlatlar. Qadimgi Suriya. Misrning Suriya va Finikiyani istilo qilishi. Qadimgi Suriya madaniyati

## 4 mavzu. Arabiston yarimoridagi eng qadimgi jamiyatlar.

Arabiston tosh va bronza asrida. Mil. avval III-II ming yilliklarda Dilmun. Makan (Magan). Arablar va Ossuriylar. Arablarning Xaldevlar (Kaldoniylar) va Forslar bilan munosabatlari.

## 5 mavzu. Janubiy Arabistondagi qadimgi davlatlar.

Main davlati Yamanning Jof degan joyida hozirgi Saradan sharoqda vujudga keldi. Mil. avval IX asr o'talarida Malinga qo'shni bo'lib, Sabo, Qatabon va Avson davlatlari paydo bo'ldi. Janubiy Arabistonning qadimgi davlatlari orasida eng mashhuri Sabodir. Himyar mamlakati.

## 6 mavzu. Qadimgi Shimoliy va Markaziy Arabiston

Janubiy Arabiston davlatlari qadimgi dunyo savdosida qanday rol o'ynagan bo'lsa, xuddi shunday vazifani Arabiston yarim orolining shimoliy va markaziy qisminida vujudga kelgan qadimgi davlatlar ham ado etdi. Siyosiy jihatdan ular hech qachon katta harbiy uyushmalar tashkil qilmagan, ammo qadimgi dunyoning ikki buyuk davlati – Rim (keyinchalik Vizantiya) va Eronning o'rtasida joylashganligi sababli bu davlatlar obektiv ravishda regiondagi xalqaro jarayonlardan xoli bo'la olmagan. Tarixan vujudga kelish tartibiga ko'ra mazkur davlatlar quyidagilar: 1) Nabotiyar davlati; 2) Tadmur davlati; 3) Laxmiylar (Hira) davlati; 4) G'assoniylar davlati; 5) Kinda. Qadimgi Hijoz. Yasrib (Madina) – shahar-davlati.

## 7 mavzu. Islom dini paydo bo'lishining omillari

Mazkur darsda dinning paydo bo'lishi tarixi (genezisi) ni ilmiy-nazariy maqsadda dinshunoslik fani nuqtai – nazariidan o'rganishda bu jarayonga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillarni hisobga olishga, soddaroq qilib aytganda, qachon, qaerda va qanday

1. Qadimgi Misr davlatining paydo bo'lishi.
2. Mesopotamiyaning eng qadimgi davlatlari.
3. Falastinning qadimgi tarixida Isroil-Yahudiy qabilalarining o'rni.
4. Arabiston tosh va bronza asrida.
5. Sabo, Qatabon va Avson davlatlari.
6. Janubiy Arabiston davlatlari.
7. Nabotiyar davlati.
8. Qadimgi Hijoz. Yasrib (Madina) - shahar-davlati.
9. Islom dini paydo bo'lishining omillari.
10. Xulafoi Roshidin davri.
11. Arab davlatlari Umaviylar sulolasi boshqaruvi yillarida.
12. Saljuqiylar va Fotimiylar.
13. Muhammad Alining hukmronligi.
14. Arabiston yarim orolida vahobiylikning shakllanishi
15. Misrning mustamlaka davri.

## (Yangi va eng yangi davr)

1. Ikki jahon urushi oralig'idagi davrda arab mamlakatlari (1919-1939)
2. Milliy ozodlik harakatlari (1946-1969)
3. 1970-1990 yillarda Arab-Isroil qarama-qarshiligi sabablari.
4. Isroil davlatining tashkil etilishi.
5. XXI asr boshlarida Misr
6. XXI asr boshlarida Suriya
7. XXI asr boshlarida Jazoirdagi ziddiyatlar
8. XXI asr boshlarida Marokashdagi siyosiy jarayonlar
9. XXI asr boshlarida Fors ko'rfazi arab davlatlaridagi integrasiya
10. Saudiya Arabistonining xalqaro aloqalari
11. Yamandagi ijtimoiy inqiroz
12. Ommaviy madaniyat va arab davlatlarining milliy madaniyati
13. XXI asr boshlarida arab dunyosi
14. "Arab bahori" va arab davlatlarida yangi siyosiy inqirozlar
15. Suriya, Iroq va Yamandagi urush harakatlari

Amaliy mashg'ulota multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Shimoliy Afrika arab davlatlarida islom dinining tarqalishi
2. Tunisdagi etnik guruhlar va mayda qabilalar
3. Jazoirdagi etnomadaniy jarayonlar
4. Marokashdagi etnik guruhlar

Arabiston yarim orolida sodir bo'lgan jarayonlar siyosiy va madaniy kontekstda tahlil qilinadi.

#### 10 "Arab bahori" va arab davlatlarida yangi siyosiy inqirozlar

Arab bahori (al-Thawrat al-'Arabiyyah) 2010-yil oxirida arab dunyosida boshlangan qator e'tirozlarga berilgan nomdir. Ular Tunis, Misr, Yaman, Jazoir, Iordaniya, Mavritaniya, Saudiya Arabistoni, Ummon, Sudan, Siriya, Liviya hamda Marokash kabi mamlakatlarni qamrab oldi. E'tirozlar inqilob deya baholanmoqda. E'tirozlar 2010-yil 18-dekabrda Tunisda, Muhammad Buazizning politsiya poraxo'rligi va qattiqqo'lligiga achchiq qilib o'zini yoqib yuborishidan boshlanib ketdi. Tunis to'ntarilishi muvaffaqiyati va mintaqadagi o'xshash vaziyatlar tufayli, namoyishlar to'liqini qo'shni mamlakatlarga o'tdi, jumladan e'tirozlar Jazoir, Iordaniya, Misr va Yamanda davom etdi, nisbatan kichik miqdoda boshqa arab mamlakatlari ham voqealar silsilasiga tushdi. E'tirozlar natijasida birinchi bo'lib o'zgarган hukumat Tunisniki bo'ldi: sobiq Prezident Zayn al-Abidin ibn Ali Saudiya Arabistoniga qochdi. Keyingi katta e'tirozlar Misrda 2011-yil 25-yanvarda boshlandi. To'rt kunlik namoyishlardan so'ng Prezident Husni Muborak islohotlar o'tkazishga va'da berdi, biroq lavozimidan kechish niyatini bildirmadi. Bundan keyin davom etgan namoyishlardan so'ng Muborak 30 yillik mansabini boshqa egallamasligini, sentabrda bo'lib o'tadigan saylovlardan so'ng iste'foga chiqishini e'lon qildi. Bu paytda Iordaniya qiroli Abdulla II bosh vazirni almashtirdi, Yaman Prezidenti Ali Abdulloh Solih esa keyingi saylovlarda nomzodini qo'ymaslikka va'da berdi.

#### 11 mavzu. Suriya, Iroq va Yamandagi urush harakatlari

Suriyada Asad hukumatiga qarshi isyon. Isyonchilar eronparast shia o'zchiligi — alaviylar o'qimi, ya'ni Asad rejimiga qarshi urush olib bordi. Bundan tashqari, ta'minoti Eron tomonidan amalga oshiriladigan hamda asosiy bazalari Livanda joylashgan eronparast shia fundamentalist tashkiloti — "Hizbulloh" Asadga ulkan yordam ko'rsatdi. Suriyada aholining asosiy qismini sunniylar, etnik jihatdan birinchi navbatda arablar tashkil qiladi. Sunniy isyonchilar alohida guruhlariga bo'linib ketgan. Ammo Suriya shimolida ularning ko'pchiligi ayni paytda Fath koalitsiyasi tarkibiga kiradi. Iroqda aholining mutlaq ko'pchiligini shia arablar tashkil etadi. Bag'doddagi mahalliy hukumat shia partiyalaridan tuzilgan. ISHID. Mahalliy hokimiyatlardan mustaqil bo'lgan alohida kuchni Iroq va Shom islom davlati tashkil etadi, unga qarshi barcha kurashdi. ISHID mohiyatan mustaqil sunniy o'qim. ISHIDda qulchilik va qul savdosi amal qiladi. Siyosiy planda u mutlaq monarxiyadir. U xalqaro terrorchi guruh sifatida tan olingan.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**  
Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:  
(Qadimgi va o'rta asrlar)

degan savollarga javob berishga to'g'ri keladi. Arablarda etnik, umumiy til va yozuv birligining shakllanishi. Ularni birlashtirish uchun milliy rahnamo masalasi. Islom dini va arab davlatlarining yaxlitlanishi.

#### 8 mavzu. Islom xalifaligining davrlari va uning Arab davlatlari taraqqiyotidagi ahamiyati

Xulafoi Roshidin davri, Shom Umaviy xalifaligi, Iroq Abbosiy xalifaligi, Misr Abbosiy xalifaligi, Usmonli xalifaligi. Bulardan Abu Bakrning xalifaligi ikki yil davom etdi. Umarniki o'n yarim yil, Usmonniki o'n ikki yil, Alimiki besh yil, Hasanning xalifaligi esa olti oy davom etdi. Bu besh xalifaning xalifaligi hammasi bo'lib o'tuz yilni to'ldiradi, tarixchilar Xulafoi Roshidin davrini ikki qismga ajratishadi: oltin davr (632-650) va boshboshdoqlik davri (650-661).

#### 9 mavzu. Arab davlatlari Umaviylar sulolasi boshqaruvi yillarida

Umaviylar - Yaqin va O'rta Sharq, Movarounnahrda xukmronlik qilgan (661 — 750). Asoschisi — Muoviya I. Uning davrida arablar g'arbda Shimoliy Afrika, Pirenei ya.o. ning katta qismi, sharqda Tabariston, Jurjon, Movarounnahr, Sind va b. hududlarni bosib olishgan. Muoviya I (661—680) va Abdulmalik davrida (685—705) davlatning harbiy, siyosiy, iqtisodiy qudratini oshiruvchi bir qancha ma'muriy va harbiy islohotlar o'tkazilgan. Xususan, xalifa lavozimi nasliy bo'lib qolgan, davlat xazinasi va davlat arxivi tashkil etilgan, arab tili davlat tili deb e'lon qilingan, yangi (oltin, kumush va mis) pul chiqarilgan, harbiy dengiz floti tashkil etilgan. U. poytaxtni Damashq sh.ga ko'chirganlar, shu tufayli bu xalifalikni Damashq xalifaligi deb ham atashadi.

#### 10 mavzu. Abbosiylar xalifaligi va Arab davlatlarining taraqqiyoti

Abbosiylar (750—1258). Abul Abbas Abdulloh sulolaning birinchi xalifasi edi. Ikkinchi xalifa Saffohning ukasi Abu Ja'far Mansur (754-775) Bag'dod shahriga asos solib, poytaxtni shu yerga ko'chirdi. Abbosiylar hukmronligining dastlabki davrida mulkchilik munosabatlari o'sib, savdo-sotiq rivojlandi. Xalifalikning iqtisodiy negizini, siyosiy va harbiy qudratini mustahkamladi. Ayniqsa Horun ar-Rashid va uning o'g'li Ma'mun zamoni Abbosiylar sulolasining gullagan davri edi. 9-asrning ikkinchi yarmidan boshlab Abbosiy xalifaligi zaiflasha boshladi, Afrikada ag'labiylar, Misrda tuluniylar, Xuroson va Movarounnahrda somoniylar Abbosiy xalifaligidan ajrab chiqdilar.

#### 11 mavzu. Arab dunyosining differentsiatsiyalashuvi

Saljuqiylar va Fotimiylar. Arab G'arbi (Mag'rib). Al-Andalus mamlakati. Almoraviylar va Almohadlar. Magrib va Granada. Mamluk davlati. Arab-islom madaniyati. Arab Sharqi madaniyati. Arab G'arbining madaniyati. Arablarning Yevropa madaniyatiga ta'siri.

#### YANGI VA ENG YANGI DAVRDA ARAB DAVLATLARI

1 mavzu. Shimoliy Afrika arab davlatlari Usmonli imperiyasi va

### G'arb mustamlakachiligi ta'sirida

Usmonliar hukmronligi va uning oqibatlari. Arab-Usmonli Jamiyatining xususiyatlari. Imperiyani markazsizlashtirish. XVIII-II-asrlar boshlarida Misr va Mag'rib. Napoleon Bonapart ekspeditsiyasi. Muhammad Alining hukmronligi. Magrib mamlakatlari va Yevropa.

### 2 mavzu. XIX asrda Arab Sharqi va Usmonliar

Arabiston yarim orolida vahobiylikning shakllanishi va ularning mag'lubiyati. Asr boshlarida Iroq va Suriya. Tanzimat davri.

### 3 mavzu. 1840-1914 yillarda Misr va Mag'rib

Arab Afrikasidagi mustamlakachilik. Misrning mustamlaka davri. Sudandagi Mahdiytlar harakati. G'arbiy Tripoli ning senusitlari. Jazoirning mustamlakasi. Tunis: Protektorat rejimi. Marokashni qo'lga olish. Usmonli hukmronligining qulashi. Zulm davridagi arablar. Arablar va yosh turk inqilobi. Birinchi jahon urushidagi arab mamlakatlari

### 4 mavzu. Ikki jahon urushi oraliq davrida arab mamlakatlari (1919-1939)

Birinchi Jahon Urushidan keyin arab aholisi bo'lgan hududlarning bir qismi Usmoniy qarantligidan chiqarib yuborildi, ammo G'arb davlatlariga mustamlaka yoki yarim mustamlaka qarantligiga tushib qoldi. Usmonli imperiyasining qulashi va undan oldingi arab mulklarini olib chiqib ketishi munosabati bilan "arab ummatlari" g'oyasi Usmonliarga qarshi yo'nalishini yo'qoldi va mustamlakachilikka qarshi va qisman g'arbiy xarakterga ega bo'ldi, chunki aynan G'arb davlatlari, birinchi navbada mustamlakachi Angliya va Frantsiya asosiy tashqi dushmanlar deb hisobлана boshladilar. "Arab jamiyati" Birinchi Jahon urushidan keyin Mag'rib va Mashriq hududlarida mavjud bo'lgan umumiy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatni boshqardi. Shuningdek bu davrda arablarning mustamlakaga qarshi va milliy harakatining matkuraviy asoslari shakllandi. Arabiston yarim orolidagi arablarning milliy-ozodlik harakati muammolari va xususiyatlari.

### 5 mavzu. Arab davlatlari ikkinchi jahon urushi yillarida

Arablarining Ikkinchi Jahon urushidagi ishtirokini titifogchilar g'alabasi va dushman kuchlarining mag'lubiyatini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biri deb hisoblash mumkin. Shu bilan birga, Urushdan keyingi yetti o'n yillikda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasi yirik harbiy to'qnashuvlar zonsiga aylandi. Shu munosabat bilan Arab Sharqining yaqin tarixi, xususan, arablarning Ikkinchi Jahon urushidagi ishtiroki tadqiqotchilar va siyosatshunoslarning diqqat markaziga aylandi.

Ikkinchi Jahon urushidagi arablarning o'rni har tomonlama tushunishga harakat qilib, o'sha fojiali davrda arab xalqlari global ahamiyatga ega voqealarda muhim rol o'ynamay, frontning qarama-qarshi tomonlarida

bo'lgan. Va umuman o'sha urushda arablarning o'rni haqida birma-bir baho bersh juda qiyin. Ikkinchi Jahon urushi arab davlatlari milliy mustaqilligi uchun asos bo'ldi.

### 6 mavzu. Milliy ozodlik harakatlari (1946-1969)

Ikkinchi Jahon Urushidan keyin arab davlatlarining aksariyati G'arb davlatlariga yarim qarantlik holatida edi. Mustamlaka rejimi Jazoir, Tunis va Marokashda davom etdi. Livan, Suriya va Transjordaniya vakolatli hududlar bo'lib qoldi. Misr va Iroq G'arb davlatlari bilan ularning suverenitetini cheklaydigan shartnomalar tuzishdi. Arab-Isroil urushlari arablar dunyosining holati va tashqi siyosiy yo'nalishiga qanday ta'sir ko'rsatdi. 1952 yildagi Misrdagi inqilob arab dunyosida jiddiy oqibatlarga olib keldi. Suriya-Misr federatsiyasini amalga oshirishga urinish muvaffaqiyatsiz tugadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Suriya va Iroqda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda Baas partiyasining roli. Yangi arab suveren davlatlarini shakllantirishda armiyaning roli. Arab mamlakatlarda hokimiyat tepasiga kelgan dunyoviy siyosiy rejimlar muqarrar ravishda islomchilar bilan to'qnash kelishdi.

### 7 mavzu. 1970-1990 yillarda Arab mamlakataridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat

1970-1990 yillarda Arab-Isroil qarama-qarshiligining mohiyati va sabablari. A. Sadadning siyosiy kursi va uning natijalari. Bir partiyali diktatura davrida Jazoirda islomiylikning kuchayishi. "Jamaxriya" g'oyalarning Liviyadagi g'alabasiva bu jarayonda M. Qadafiy roli. Suriyadagi "tuzatish harakati". Hofiz Asad va uning o'g'li. Saddam Xuseyn davrida Iroqdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Saudiya Arabistoni Qirrolligining ichki va tashqi siyosatini rivojlantirishda neftning roli.

### 8 mavzu. Yaqin Sharq mojarosi va uning arab davlatlari tarqiqiyotiga ta'siri

Isroil davlatining tashkil etilishi. Arab xalqlarining parchalanish sabablari. 1956-yilgi Suvaysh inqirozi va uning oqibatlari. 1967-yil iyundagi "olti kunlik" urush. Arab mamlakatlari birligining shakllanishi. Arab davlatlarining mustahkamlanishi. 1973-yilgi urush. 1979-yilgi Kempdevid bitimi. Arab davlatlari o'rasidagi parchalanish. 90-yillarda Isroildagi ichki siyosiy kurashlar.

### 9 mavzu. XXI asr boshlarida arab dunyosi

Arab davlatlari XX asr davomida sinab ko'rgan turli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish modellari ularni boshi berk ko'chaga olib keldi. Dunyoviy arab milliy davlatini qurish loyihasi ham barbod bo'ldi. Farvonlik o'rninga cheksiz inqirozlar, harbiy to'ntarishlar, ketma-ket rahbarlarning diktaturalariga, tizimli korruptsiya va qashshoqlikka duch keldi. Arablarning milliy-ozodlik harakati g'oyalari va amaliyoti faqat Jazoir va Suriyada katta g'iyinchiliklar bilan saqlanib qolgan. Bu davr bo'yicha Misr, Suriya, Liviya va